

INSTITUSIONAL MUASSASALAR BITIRUVCHILARINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHDA TUTINGAN OILA YOKI PATRONAT OILALARINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11170001>

Ziyayeva Xolida Omonqul qizi

O'zMU dotsenti, sotsiologiya fanlari bo' yicha

falsafa doktori (PhD)

O'zMU, Ramazonova Setora

1 kurs talabasi

Tel:+99850-077-05-84

E-mail:setoraramazonova0@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada biz patronat oilaning turlari, maqsadi va vazifalari va bu oilani qanday shakllanishini ko'rishimiz mumkin. So'ngi paytlarda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot va amaliy tajriba natijalari homiylik ostidagi oilalarning muassasalar bitiruvchilarining ijtimoiy himoyasiga ijobiy ta'siridan dalolat beradi. Homiylik ostidagi oilalarning ishi ushbu bolalarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashi, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishi va mustaqil hayot uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Bu bolalarda integratsiyani rivojlantirish va ijtimoiy va psixologik buzilishlarni kamaytirishning asosiy vositalaridan biri bu homiylik tizimidir.

Kalit so'zlar

Patronat oila, institutsional muassasa, ijtimoiy himoya, tutingan oila, homiylik, integratsiya, vasiylik, oila kodeksi, patronat tarbiyachi, oila instituti, qonunchilik, Vazirlar Mahkamasi.

Patronat-yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni hokimiyat, vasiylik va homiylik tashkilotlari tomonidan oilalarga joylashtirish shakli. Patronat oilaga joylashtirilgan bola homiylik ostidagi oila bilan birga, davlatdan moddiy yordam olishni o'z ichiga olgan pullik vasiylikni anglatadi. Patronat vasiylik va homiylik organlari va ota-onalar o'rtasidagi maxsus shartnoma beriladi. Homiylik tizimi oilada asrab olishni istamaydigan-sog'lig'i bilan bog'liq muammolar yoki aka-uka va opa-singillar bo'lgan bolalarni joylashtirish imkonini beradi. O'zbekistonda patronat tizimi Oila kodeksi asosida qonunchilik bilan belgilanadi. Patronat oilaga

olishda 10 yoshdan oshgan bolalarning roziligi soʻraladi[52]. Bola oilaga joylashtirilgan keyin patronat oila vasiylik va homiylik organlari bilan birgalikda ishlashadi.

Biz patronat oilaning bir necha turini koʻrishimiz mumkin. Patronatning uzluksiz va davriy turlari bor. Birinchi holatda, bola oʻz vasiyligi toʻgʻrisida yakuniy qarorga qadar vaqtincha oilada boʻladi. Ikkinchi holatda, oila bolani dam olish yoki bayram kunlarida, 1-2 kundan 3 oygacha boʻlgan muddatga oladi. Patronat oilalarga bolalar toʻgʻridan-toʻgʻri berib yuborilmaydi. Patronat vasiylik va homiylik organlari va ota-onalar oʻrtasidagi maxsus shartnoma asosida beriladi. Bundan tashqari farzand asrab oluvchi oilalar maxsus tayyorgarlikdan oʻtishlari lozim. Patronat tarbiyachilar 1 nafardan 4 nafargacha bola asrab olishlari mumkin.

Patronat (tutingan oila) qanday tashkil etiladi? Bu oila turi qonunchilik asosida tashkil etiladi. Yetim bolalar va ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni oilaga tarbiyalash (patronat)ga olishning huquqiy mexanizmlari Oʻzbekiston Respublikasining Oila kodeksi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasining Oila kodeksini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan meʼyoriy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 171-sonli qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash, oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olish maqsadida patronat oilalar tashkil etilgan. Patronat oilalarning ham salbiy va ijobiy tomonlari mavjud. Bularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz. Salbiy tomoniga quyidagilarini kiritishimiz mumkin:

- Bola familiyasini saqlab qoladi, oʻz maqomini biladi va qarindoshlari bilan muloqotda boʻladi. Buning kamchiligi shundaki, agar bolaning yoshi sal kattaroq boʻlsa bola bu oilaga toʻla qonli aʼzosi emasligini his qilib turadi.

- Bolani homiylik ostidagi oilaga berishning siri yoʻq, yaqinlari bilan muloqotda boʻladi. Farzand asrab oluvchi bu aloqani bolaga zararli ekanligini isbotlasagina toʻxtashi mumkin.

- Farzandlikka oluvchi 3 yoshgacha boʻlgan bolani parvarish qilish va buning uchun zarur boʻlgan toʻlovlar va nafaqalarni qoldirish huquqiga ega emas.

- Agar bola asrab olinishi ham, vasiylik va homiylikka berilishi mumkin bo'lsa u holda farzand asrab oluvchilarga ustuvorlik beriladi. Salbiy tomonlari shulardan iborat edi.

Endi ijobiy tomonlariga ham bir necha misollar keltirsak:

- davlat tomonidan qo'shimcha moliyaviy yordam;

- bola o'z ota-onasidan aliment olish huquqini saqlab qoladi;

- Bola 18 yoshga to'lganda (agar o'ziniki bo'lmasa) uy-joy olish huquqini saqlab qoladi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisiga oylik nafaqa to'lanadi, vasiylik organlari homiylik ostidagi ota-onaga tarbiya, dam olish va davolanishni tashkil etishda yordam berishi shart.

Patronaj oilalarning tashkil etilishi bu juda ham yaxshi tizim desak ham bo'ladi. Bunday oilalar asosiy vazifasi - qiyin hayotiy vaziyatda yoki ijtimoiy xavfli vaziyatlarda bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga psixologik-pedagogik yordam berish, ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Patronajning maqsadlari:

1. Oilaning samarali faoliyat ko'rsatishi, yo'qolgan ijtimoiy mavqeini tiklash, qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan oilalar farzandlarining rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

2. Oilalar va bolalarning davlat tomonidan himoya va yordam olish huquqini ta'minlash, oila institut sifatida rivojlanishiga ko'maklashish, ijtimoiy salomatlik va farovonlikni mustahkamlash.

3. Oilaning jamiyat va davlat bilan aloqalarini rivojlantirish, oila ichidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish.

Patronatning asosiy turlari va prinsiplari:

- Tizimlilik;

- Murakkablik;

- Ichki resurslardan optimal foydalanish;

- Inson qadr-qimmatini hurmat qilish, oila, mustaqilligi va tanlash erkinligi;

- Asoratlarning oldini olish;

- Murabbiy bilan o'zaro munosabat;

- Mumkin bo'lgan yordam miqdorini obyektiv baholash.

Har bir bola oilada o'sib-ulg'ayishga haqli. Oilada va institutsional muassasalarda yashayotgan bolalar orasida ancha farq bor. Masalan: Institutsional muassasada ulg'aygan bola jismoniy va ruhiy rivojlanishdan ortda qoladi. U yerda

bola har 3 oyda 1 oyga rivojlanishdan orqada bo‘ladi. Undan tashqari tajovuzlar xavfining yuqori ekanligi. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mehribonlik uylarida tarbiyalangan barcha yoshdagi bolalar juda ko‘p tajovuzlarni boshdan kechirishadi. Jumladan, ular jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlikning yo‘qligi, shuningdek, odam savdosi yoki ekspulatsiyaning boshqa ko‘rinishlaridan aziyat chekish xavfi ostida bo‘ladi. Yana bir sabab ular balog‘atga yetganda ham bir necha muammolarga duch kelishi mumkin. Ijtimoiy yakkalanish, uysiz va ishsiz bo‘lib qolish, jinoyatchiga aylanish, ruhiy salomatligining buzilishi va ular hattoki o‘z joniga qasd qilishgacha olib borishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday vaziyatlar kelib chiqmasligi uchun ham patronat yoki tutingan oilalar tashkil etilgan.

Biologik oilasi bilan yashash imkoniyatiga ega bo‘lmagan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini ko‘rib chiqsak. O‘zining biologik oilasida yashash imkoniyatiga ega bo‘lmagan barcha bolalar o‘zlarining hayot uchun zaruriy bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilishiga muhtojdirlar. Agar baholash jarayonida bolaning biologik oilasi va oilaviy muhiti uning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganligini ko‘rsatuvchi aniq ma‘lumotlarga ega bo‘lgan taqdirdagina, bola davlat himoyasi ostiga o‘tadi. Ya‘ni, bunda bola hayot tarzini tashkillashtirish, iqtisodiy-ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalalari bolaning yosh davridan kelib chiqqan holda hal etiladi[2]. Agar bola 10 yoshga to‘lmagan bo‘lsa, bunday hollarda uning psixo-jismoniy va axloqiy xususiyatlari inobatga olingan holda quyida keltiriluvchi foster himoyaning eng qulay shakliga ega bo‘lgan fostur oilalarga joylashtiriladi. Bu oilalar hududda mavjud bo‘lgan resurslardan foydalanilgan holda belgilanadi va tashkillashtiriladi.

Bunga qanday erishish mumkin? Bevosita o‘zining boshlig‘i, shuningdek, qaror qabul qiluvchi organ, masalan, asrab olish yoki foster vasiylik bo‘yicha yig‘ilishda ishtirok etuvchi hay‘at a‘zolari bilan hamkorlikda ishlaydigan ijtimoiy xodim doimo bolaning manfaatlarini inobatga olishi va uning ehtiyojlarini e‘tiborga olishi lozim. Bunday ehtiyojlar orasida bolaning tug‘ishgan aka-ukalari yoki opa-singillari bilan birga joylashtirilishiga bo‘lgan xohish-istagi (agar bunday joylashtirish bolaning rivojlanishi va farovonligiga zarar yetkazmasa) birinchi navbatda ko‘rib chiqilishi kerak[3].

1. Katta oila a‘zolari / qarindosh oilalar asosiga qurilgan foster homiylik. Tegishli mahalliy hokimiyatlar vasiyligi ostida bo‘lgan bola o‘z oilasining katta a‘zolaridan bo‘lgan ona yoki ota avlod qarindoshlari, ya‘ni bobosi, buvisi, xola, amaki, tog‘avvachcha, ammavachcha yoki katta akalar yoki opalari xonadoniga joylashtirilishi mumkin. Bolani o‘z biologik oilasida vaqtincha yashash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, birinchi navbatda, oilaning katta a‘zolari vaqtincha vasiylikka

olishlari uchun imkoniyatlari mavjudligi haqida o'z roziliklarini berishlari zarur. Agar ular uzoq yoki qisqa muddatli asosda bunday vasiylikni zimmlariga olsalar, bunday vazifani bajarishga yaroqliliklari yuzasidan baholashdan o'tishlari kerak. Shu bilan birga, ichki oilaviy munosabatlar, bola oilaga tarbiyalanuvchi sifatida joylashgandan keyingi o'zgarishi mumkin bo'lgan munosabatlar dinamikasi murakkab bo'lishi, bu esa o'z o'rnida bolaning farovonligini xatarga qo'yuvchi katta oilaviy janjal xavfiga olib kelishi mumkinligini unutmaslik darkor. Boshqa tomondan esa bu qarindosh oila bola uchun eng yaxshi muhitni taqdim qiladi, chunki u bola oilasining tarixini, uning o'tmishini, ota-onasini biladi, shu sababli bunday muhit bola bilan oilaviy bayramlar haqidagi xotiralarni baham ko'rish imkonini beradi, bularning barchasi esa bolaga yangi oilaga samarali moslashib ketishi uchun imkon yaratadi. Ota-onalarning biri yoki har ikkovlari bolani ma'lum bir qarindoshinikiga joylashtirishga e'tiroz bildirishlari mumkin va ularning fikrlari joylashtirish haqidagi qaror qabul qilinishidan oldin inobatga olinmog'i lozim. Bola va ota-onalar, shuningdek, aka-ukalar hamda opa-singillar (agar ular bu uyda yashamasalar) o'rtasida muntazam ravishdagi muomala va to'xtamaydigan muloqot bunday joylashtirishning muhim tarkibiy qismi bo'lishi darkor[4].

2. Do'stlar / Oila yoki bolaning qo'shnilari. Katta oila a'zolari bilan bo'lgan holdagi kabi agar bola oila do'sti yoki qo'shnilari bilan yaxshi munosabatga ega bo'lsa, unda ular tomonidan vaqtinchalik yoki uzoq muddatli vasiylik amalga oshirilishi mumkin. O'zlariga foster vasiyligidek ma'suliyatni olayotgan oila do'sti yoki qo'shni bola hayotida ular bajarishlari lozim bo'lgan vazifa va majburiyatlarini to'liq tushunishi hamda imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishlari juda muhimdir. Yuqorida bayon etilganidek, bolaning ota-onasi va tug'ishgan aka-ukalari, opa-singillari bilan muntazam ravishda aloqa va muloqotda bo'lishlarini ta'minlash muhim.

3. Tezkor foster homiylik. Bolalar bir necha kunga xavfsiz yashirin joyga muhtoj bo'lgan taqdirlarida qo'llaniladi.

4. Vaqtincha homiylik, odatda, nogiron bolalari bo'lgan oilani vaqtincha qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lib, uyning o'zida yoki maxsus tashkilotda bolaga taqdim etiladigan qo'shimcha g'amxo'rlik (masalan, oyda 1 yoki 2 hafta) shaklida amalga oshiriladi. Bunday hollarda bola va uning oilasi bilan yaxshi munosabat o'rnata oladigan faqatgina bitta homiy yordamidan foydalaniladi. Homiylikning ushbu turi stress ta'siri ostida qolgan oilaning barbod bo'lishini oldini oladi va ota-onalarning boshqa bolalarga ham jismonan yetarli darajada e'tibor ajratishlari uchun imkoniyat yaratadi[5].

5. Hamkorlikdagi homiylik. Bunday vaziyatlarda nogiron, alohida ehtiyojli yoki tarbiyasi og'ir bolalar qisqa muddatga boshqa foster oilaga beriladi. Bu tarzdagi sharoitning yaratilishi biologik ota-ona yoki doimiy tarzda bola bilan ishlovchi foster homiylarning xordiq chiqarishlari uchun imkon beradi. Bola uyga qaytgan taqdirda yoki boshqa xolatlarda u haqidagi g'amxo'rlik oila va homiylar o'rtasida bo'linadi.

6. Foster homiylik. Foster homiylik - bu bolani, uning shaxsiy uyidan tashqaridagi boshqa oilaning oilaviy muhitiga joylashtirishdan iborat bo'lgan himoya shaklidir. Bolalar hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va bolaning kundalik ehtiyojlarini qondirish va huquqlarini himoyalash bilan shug'ullanuvchi foster oilalarga joylashtiriladi. Foster homiylik qisqa va uzoq muddatli (bir yil yo undan ko'p yillarga, yoki bolaning voyaga yetguniga qadar) bo'lishi mumkin. Foster homiylikning tan olingan eng yaxshi modeli biologik oila o'rnini bosishni emas, balki ko'proq bolani qo'llab-quvvatlashni e'tirof etadi. Ushbu holatda ijtimoiy xodimlar nafaqat bolani, balki uning foster vasiylarini ham ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadilar. Bunday qo'llab-quvvatlash tizimi mahalliy darajada boshqariladi.

7. Qisqa muddatli homiylik. O'z oilasida qolish imkoniyatiga ega bo'lmagan barcha yoshdagi bolalar haqida g'amxo'rlikni o'z homiyligiga oladi. Qisqa muddatli foster homiylik xizmati bolaning kelajagi bo'yicha oxirgi qaror qabul qilinguniga qadar bo'lgan muddatda tashkillashtiriladi. U bir yildan ko'p bo'lmagan muddatni ko'zda tutadi. Qisqa muddatli foster homiylik - ma'lum bir muddatda bolaning na ota-onasi, na qarindoshi uning ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatiga ega bo'lmagan taqdirda, bolaga oila homiyligini o'rnini bosishni taqdim etish yo'li bilan bolaning manfaatlarini vaqtincha himoyalash vositasidir. Qisqa muddatli foster oilalar o'z vaqtida bolani oilaga qaytarishning rehabilitatsion rejasini qo'llab-quvvatlashlari va bolaning ota-onasi, aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek, boshqa qarindoshlari bilan aloqa o'rnatishga bo'lgan ehtiyojlarini muntazam ravishda qo'llab-quvvatlashlarini talab etadi.

8. Farzandlikni belgilash biologik ota-onalar bilan bola o'rtasidagi o'zaro qonuniy munosabatlarning bekor qilinishi va yangi ota-onalar bilan yangi qonuniy munosabatlar o'rnatilishi assosiga qurilgan jarayondir.

9. Uzoq muddatli oilaviy foster homiylik ijtimoiy xodim va farzandlikni belgilash bo'yicha yig'ilish hay'ati bola hayotining farovonligi uchun biologik oilaning xavfli vaziyatdan xali-hanuz xoli bo'lmaganligi hamda bu oilaga qaytarish bola manfaatlarini himoyalash maqsadida eng ma'qul bo'lgan muhit emasligi haqida yakuniy qarorga ega bo'lgan taqdirda, shuningdek, farzandlikni belgilash

uchun munosib oila topilmagan hollarda ko‘rib chiqiladi. Uzoq muddatli foster homiylik bu shafqatsiz munosabat yoki jismoniy zulmni boshidan kechirgan yoki alohida ehtiyojli bolalarni doimiy asosda oilaga joylashtirishdan iborat bo‘lgan shaklidir. Bolaning uzoq muddatni ko‘zlagan tarzda foster oilalarga joylashtirilishi bolaning mustaqil hayot tarzini boshlaguniga qadar davom etadigan foster tarbiyachilar bilan uzviy hamkorligini talab etadi. Bunda foster tarbiyachilar bola voyaga yetguniga qadar uning manfaatlarini himoyalovchi shaxs sifatida unga doimiy yordam ko‘rsatib boradi. Shu bilan birga bu holatda bola o‘zining biologik oilasi bilan muntazam ravishda aloqada bo‘lib turadi, bu esa o‘z o‘rnida foster oila a‘zolari bilan uzoq muddatli konstruktiv munosabatni ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Ba‘zi hollarda uzoq muddatli homiylik farzandlikka olishni istagan munosib nomzod topilmaguniga qadar davom etish mumkin[6].

10. Dastlabki foster homiylik – bunday shakl voyaga yetmagan bolalarni sud orqali maxsus tayyorlangan foster tarbiyachiga yo‘llash orqali belgilanadi.

11. Maxsus terapevtik foster homiyliigi: murakkab va noahloqiy xulqqa ega bo‘lgan bolalar uchun belgilanadi. Terapevtik foster oilalarga faqatgina bitta bolani joylashtirish mumkin bo‘lib, bu oila va uning tarbiyalanuvchisiga kunu-tun maxsus tayyorlangan ijtimoiy xodim va boshqa mutaxassislar tomonidan terapevtik yordam ko‘rsatib boriladi. Ushbu holatda foster oila, ijtimoiy xodim va boshqa mutaxassislar o‘zaro uzviy hamkorlik asosida bola hamda uning biologik oilasi bilan terapevtik tadbirlarni amalga oshiradilar.

12. Kichik guruhli uylar: bu oddiy xonadon yoki uyga joylashtirilgan chegaralangan miqdordagi bolalar tarkibida tashkillashtiriladi. Bolalar o‘z tengdoshlari bilan birga yashaydilar, birga maktabga qatnaydilar, bo‘sh vaqtlarini va sport mashg‘ulotlarini tengdoshlari bilan birga o‘tkazadilar, umuman olganda o‘zlarini oila muhitida his qiladilar. Bunday uylarda bolalar haqida doimiy g‘amxo‘rlikni ta‘minlovchi va ularda mustaqillikni rivojlantiruvchi tarbiyachilar xizmat ko‘rsatadilar. Bolalar xo‘jalik ishlarini yuritishda qatnashadilar, kerakli narsalarni xarid qiladilar, ovqat tayyorlaydilar, kir yuvishni o‘rganadilar, agar imkoni bo‘lsa, o‘z yotoqxonalarini bezaydilar. Bu uylarda ikki kishiga bittadan yotoqxon mavjud bo‘lib, ular o‘z do‘stlarini mehmonga chaqirishlari mumkin. Bunday uylarda o‘zlarida mustaqillik malakalarini rivojlantirishlari hamda tez orada chiqib ketishlari zarur bo‘lgan katta yoshli bolalar ham yashashlari mumkin. Shuningdek, bu uylarda yoshi jihatidan yoki nogironligi sababli foster farzandlikka tayinlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan bolalar ham yashashlari mumkin. Homiylikning bu ko‘rinishida tarbiyachilar bolalar bilan ishlashga kasbiy jihatdan tayyor bo‘lishlari va bu muassasaga tashkilot sifatida emas, balki aynan uy

tariqasida munosabatda bo'lishlari va umumiy jarayonni to'g'ri anglashlari juda muhimdir. Izoh: Shunga alohida e'tibor qaratish lozimki, uzoq muddatli foster himoya bola bilan kechadigan uzoq muddatli munosabatni va uning kelajagi haqida qayg'urishni talab etadi. Bunda foster tarbiyachi doimiy ravishda ijtimoiy xodim, bolalar uchun mavjud maxsus xizmatlar, bolaning biologik oilasi va qarindoshlari bilan munosabatni o'rnatib borishi lozim. Uzoq muddatli foster homiylikda farzandlikka belgilashdan farqli ravishda ota-onalik huquqi va majburiyatlari homiyga yuklatilmaydi. Huquq va majburiyatlar, avvalgidek, biologik ota-ona va tegishli tashkilotlarda saqlanib qoladi. Uzoq muddatli foster oila bolaning kundalik parvarishi bo'yicha mas'uldir, biroq birmuncha muhim qarorlar qabul qilishda, masalan, maktabni almashtirish, chet elga chiqish yoki xirurgik operatsiya qilish kabilarda mas'ul bo'lgan bolalar ijtimoiy xizmatlari yoki biologik ota-onalar bilan maslahatlashishi zarur. Ba'zi holatlarda esa bola bilan ishlash rejasi biologik ota-onalar bilan doimiy ravishdagi uzviy aloqani ko'zda tutadi, bunday hollarda foster tarbiyachi bunga amal qilmog'i lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida sanab o'tgan turli xil nojo'ya vaziyatlar kelib chiqmasligi uchun, har bir bola ota-ona, oila mehrini his qilib yashashi uchun, muassasa bitiruvchilarini jamiyatga moslashishi va to'laqonli insonni shakllantirish uchun ham bunday oilalar tashkil etilishi zarur deb hisoblaymiz. Binobarin, homiylik ostidagi oilalarni rag'batlantiruvchi muassasalarni rivojlantirishimiz va qo'llab-quvvatlashimiz kerak. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va bolalar huquqlarini himoya qilish ustuvor masala bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston respublikasining Oila kodeksi 1998 yil 1-sentyabr. <https://lex.uz/acts/-104720>
2. Билсон Э., Харвин Д.. Набор методических инструментов для внедрения кураторских функций в практику социальной работы с социально уязвимыми детьми и семьями.
3. Семейное устройство: Рекомендации специалистам органа опеки и попечительства по работе с гражданами при устройстве детей, оставшихся без попечения родителей, в замещающую семью. Церийа: «В помощь принимающим родителям и специалистам» Издание первое, апрель, 2006. (Эл. версия: <http://innewfamily.narod.rumenu6.htm>)

4. Усыновление. В помощь усыновителям. (Методическое пособие)
(Эл.версия:<http://innewfamily.narod.ru/menu6.htm>)

5. Программно-методическое обеспечение опытно-экспериментальной работы по развитию семейных форм устройства детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей и предложения для органов опеки и попечительства по развитию служб по устройству детей на воспитание в семью. Книга 1. Создание профессиональных служб для органа опеки. Методическое пособие.- Москва., 2004.